



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



SHIRINMIYA O'SIMLIGINING KIMYOVIY TARKIBI VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Mustafoyeva.S.N

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: *Jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda inson va uning salomatligi eng birinchi o'rinda turadi. Bu borada tabiiy o'simliklardan tayyorlangan dori darmonlarning o'rni kattadir. Hududimizda mavjud dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish bizning bu sohadagi yutug'imiz hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Qizilmiya, glitsirrizin kislotasi, qizilmiya surtmasi, ekzema.*

Аннотация: *В эпоху стремительного развития здоровье человека стоит на первом месте. В этом отношении важную роль играют лекарства, изготовленные из натуральных растений. Лекарственные растения, имеющиеся в наших краях, и их использование – наши достижения в этом отношении.*

Ключевые слова: *Солодка, глицирризиновая кислота, лакричная мазь, экзема.*

Абстракт: *In an era of rapid development, human health is in the first place. Natural herbal medicines play an important role in this regard. The medicinal plants available in our region and their use are our achievements in this regard.*

Keywords: *Licorice, glycyrrhizic acid, licorice ointment, eczema.*

Yer yuzida aholi sonining ortib borishi bilan birgalikda uning resurslarga bo'lgan talabi ham oshib bormoqda. Keyingi yillarda insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tinimsiz tabiat resurslaridan foydalanishi oqibatida yer yuzasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, tabiat qonunlarining buzilishlari kuzatilmoqda. Buning oqibatida insoniyatning o'zi zarar ko'rmoqda. Vujudga kelayotgan kasalliklarni davolash, ularning oldini olishda tabiiy vositalardan foydalanish hozirgi davrning dolzarb muammosiga aylanmoqda. Bu borada Xorazm vohasi iqlim-sharlotida o'sib rivojlanishga moslashgan Shirinmiya o'simligi katta ahamiyat kasb etadi. Teofrast o'z asarlarida bu o'simlikni solodkoviy koren, skifskaya trava, pontiyskaya trava nomi bilan atagan. Mazkur o'simlikni rus tilida – solodka, golaya, o'zbek tilida – shirinmiya, chuchukmiya, qizilmiya, Qoraqalpog'iston avtanom respublikasida esa bo'yan deb atashadi. Shirinmiyaning tarqalish areali juda keng bo'lib, siqib ittifoqning Yevropa qismida, Qrim, Kavkaz, Sibir, Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston, Shimoliy afrikada tarqalgan. Shirinmiya asosan 3xil usul bilan, urug'dan, ildizpoyadan va ko'chat yetishtirish orqali ko'paytiriladi.

Shirinmiya dorivor o'simlik sifatida juda qadim zamonlardan ma'lum. Xitoy xalq tabobatida bu o'simlik eramizdan 3000 yil avval turli xil xastaliklarni davolashda qo'llanilgan. Shuningdek, shirinmiya o'simligining shifobaxsh xususiyatlari borasida hind va tibet tabobatida ham ma'lumotlar uchraydi. O'rta asrlarning mashhur olim va tabibi buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino ham o'zining davolash amaliyotida shirinmiya yer ostki





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qismlaridan juda keng miqiyosda foydalangan. Jumladan, oshqozon ichak yaralarini, o'pka va nafas yo'llari kasalliklarini davolashda shuningdek, peshob haydovchi dorivor vosita sifatida ishlatilgan. Shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra*-L.) - dukkakdoshlar (Fabaceae) oilasiga mansub ko'p yillik o't o'simlik. Poyasi tik, bo'yi 50 - 20 sm, shoxlangan, ba'zan shoxlanmagan, tuklar bilan qoplangan. Ildizi o'q ildiz, shoxlangan, 5 - 6 m chuqurlikkacha boradi. Barglari murakkab tuzilishga ega. 4-8juft bargchalardan iborat bo'lib, poyalarda ketma-ket joylashgan. Barg uzunligi 11-18sm, bargchalari tuxumsimon, ellipssimon, atroflari butun, tuklangan, uzunligi 5sm, kengligi 2,5smni tashkil etadi Gullari qiys hiq (zigomorf), ikki jinsli bo'lib, oq binafsha rangli, changchilari yirik, og'ir. Kuchli nectar ajratuvchi bo'lganligi sababli asalari va boshqa hashoratlarni o'ziga jalb qiladi. Mevasi 3 - 7 urug'li dukkak. Urug'i qattiq, mayda, silliq, mosh rang. Aprelning oxiridan iyungacha gullaydi. Avgustda pishadi.



Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig'lanish, allergiya, zaharlanish, belangi, bo'g'ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi. Uning ildizi tarkibida gormonal faol glitsirrizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor. Shuningdek, oziqovqat, kimyo va kon metallurgiyasi sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko'p miqdorda oqsil, yog', qand, vitamin C va boshqalar borligidan qimmatbaho yemxashak hisoblanadi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlanadi. Bu o'simlik ikki oiliga: ildizi shirin maza beruvchilar (lakrichnik va xaqiqiy shirinmiya) va ildizi tarkibida shirin maza bo'lmagan. "*Glycyrrhiza glabra*" ildizi o'z tarkibida 8% dan 22% gacha glitsirrizin moddasini tutishi bilan birga uning tarkibida 4% gacha flavonoidlar, 15 % gacha glyukoza, 11% gacha saxaroza, 34% gacha kraxmal, 24% gacha kletchatka, 2% gacha steroid va 5% gacha yog` ham bor. Shirinmiya turidagi o'simliklar yer osti qismidagi ildiz va ildizchalari triterpen glikozidlarni yig`adi. Asosiy glikozidlardan biri glitsirrizin kislotasi hisoblanadi. Shirinmiya ildizi mahsulotlari xalq tabobatida dori vositasi sifatida foydalanib kelingan. Uning ildizi tarkibida 15 dan ortiq kimyoviy moddalar (glitsirrizin kislotasi - 3.6 - 11.8%, glyukoza - 0.6 - 15.2%, saharoza - 0.3 - 11.0%, kletchatka - 9.7 - 28.2%, askarbin kislotasi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



11.0 - 31.2 mg% va boshqalar) mavjud. Shirinmiyadan oshqozon yaralarini davolashda foydalaniladi. U jigar kasalliklarida, o't pufagi va taloq siydik haydovchi sifatida, zaharlanishda go'sht va qo'ziqorindan, ilon chaqqanda zaharlanishga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi. Shirinmiya ildizi organizmni yoshartiruvchi jenshendan keyin ikkinchi dori modda hisoblanadi va qariyalarga ko'proq tavsiya qilinadi. Uning surtmasi olovdan kuyganda bog'lanadi, siqib olingan sharbat bilan esa yaralar yuviladi. Shirinmiyada OITS ga, rak kasalliklari va boshqalarda retroviruslarga katalitik tas'ir etuvchi, bir qator ferment sistemalariga ta'sir etuvchi birikmalar borligi aniqlangan. Shirinmiya o'pka yo'llarini yumshatadi va uni tozalaydi, u o'pka va tomoqqa foydali va tovushni tiniqlashtiradi. Ma'lumki bugungi kunda o'simliklardan ajratib olinayotgan tabiiy birikmalarga talab oshib bormoqda. Sababi tabiiy birikmalardan asosan dori vositasi sifatida foydalaniladi. Tabiiy birikmalardan ajratib olingan moddalardan tayyorlangan dori vositalari o'zining kam zaharliligi, tirik organizmga mos kelishi va o'ziga xos faolligi bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi.



Xulosa qilib shuni aytish mukunki, o'simlikdan olingan dori vositalari siydik haydash, og'riq qoldiruvchi, yaralarni tez bitkazuvchi, allergiyaga qarshi, tinchlantiruvchi, o'pka yo'llari kasalliklari va boshqa a'zolarining kasalliklarini oldini olishda ishlatilgan. Qizilmiya o'simligining o'zi vitamin, tabiiy bo'yoq va oshlovchi moddalariga boy o'simlik sifatida ham ma'lumdir. Kundan kunga uning ishlatilish sohasi kengayib bormoqda. Hozirgi kunda esa ildiz va uning ekstraktidan faqatgina tibbiyotda qo'llanilib qolmay, balki xalq xo'jaligining 20 dan ortiq tarmoqlarida unga bo'lgan ehtiyoj namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. agro-olam.uz/dorivor-shirinmiya-haqida/ sayti. E.Axmedov
2. Ashermetov O.A., Badalov M.M. Shirinmiya yetishtirish bo'yicha qo'llanma. - Ò.: 1995.
3. Ashermetov O.A., Qarshiboev X.K. Reproduktivnaya biologiya solodki ibrazdel'nolodochnika.- Ò.: Fan. 1995.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



4. Xolmatov H.X., Ahmedov O'. A. Farmakognoziya. T.: 1995.
5. "Dorivor o'simliklarni o'stirish va yetishtirish" kitobi. 62-bet.

